Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bojxona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	



IKKILAMCHI BOZORDA NOTURAR JOY KO'CHMAS MULK QIYMATINI BAHOLASHNING HUQUQIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrası dotsenti
<https://orcid.org/0009-0001-0818-0857>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk obyektlarini baholashga oid mavjud huquqiy asoslar tahlil qilinadi. Baholash jarayonining amaldagi qonunchilik bilan uyg'unligi, shuningdek, undagi muammolar va mavjud bo'shliqlar ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan noturar joy obyektlarini aniq va adolatli baholashni ta'minlash uchun takomillashtirilgan huquqiy mexanizm hamda amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: noturar joy ko'chmas mulki, ikkilamchi bozor, qiymat baholash, huquqiy mexanizm, qonunchilik, metodologiya, baholash usullari, bozor qiymati, mulk huquqi.

Abstract: This article analyzes the current legal framework for valuing non-residential real estate properties in the secondary market of the Republic of Uzbekistan. It explores the alignment of valuation practices with existing legislation, identifying key issues and regulatory gaps. The author proposes enhanced legal mechanisms and practical recommendations to ensure accurate and fair valuation of non-residential properties.

Key words: Non-residential real estate, secondary market, property valuation, legal mechanism, legislation, methodology, valuation methods, market value, property rights.

Аннотация: В данной статье проводится анализ существующей нормативно-правовой базы по оценке объектов нежилой недвижимости на вторичном рынке в Республике Узбекистан. Рассматривается соответствие процесса оценки действующему законодательству, а также выявляются проблемы и пробелы в правовом регулировании. Автором предложены усовершенствованные правовые механизмы и практические рекомендации для обеспечения точной и справедливой оценки нежилых объектов.

Ключевые слова: Нежилая недвижимость, вторичный рынок, оценка стоимости, правовой механизм, законодательство, методология, методы оценки, рыночная стоимость, право собственности.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida ko'chmas mulk bozorini, xususan uning ikkilamchi segmentini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki ushbu bozor milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, nafaqat aholining turli qatlamlari turmushi bilan bevosita bog'liq, balki tadbirkorlik faoliyatining asosiy infratuzilmasi sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, noturar joy obyektlari – ofislar, savdo nuqtalari, ishlab chiqarish binolari va boshqa tijorat maqsadlaridagi ko'chmas mulklar – turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar uchun zarur bo'lgan iqtisodiy resurslardandir.

Har qanday davlatning iqtisodiy taraqqiyoti ko'chmas mulk bozorining rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, shundan kelib chiqib, O'zbekistonda ko'chmas mulkka oid munosabatlarning huquqiy asoslarini shakllantirish va takomillashtirish yo'nalishida qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda baholash faoliyatini rivojlantirish, zamonaviy xalqaro standartlarga mos baholash tizimini yaratish, shuningdek ko'chmas mulk qiymatini aniqlashdagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ko'chmas mulk qiymatini adolatli va shaffof baholash bo'yicha yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatishga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu jarayon O'zbekiston Respublikasining 19.08.1999 yildagi "Baholash faoliyati to'g'risida"gi 811-I-son¹ Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son² Farmoni

1 <https://lex.uz/ru/docs/-24703>

2 <https://lex.uz/docs/-5841063>



tartibga solinmoqda. Ushbu hujjatlar doirasida Yagona milliy baholash standarti hamda baholash faoliyatining normativ asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, bu sohadagi huquqiy mexanizmlarni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-iyundagi "Baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3764-son³li qarorida baholovchi tashkilotlarga bo'lgan ishonchni oshirish va baholash natijalarining xolisligini ta'minlash muhim vazifa sifatida belgilangan. Ayni paytda mamlakatimizda ikki yuzdan ortiq baholovchi tashkilotlar faoliyat yuritmoqda va mingga yaqin malaka sertifikatiga ega baholovchilar faol mehnat qilmoqda.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulkiga bo'lgan talab va narxlar dinamikasi o'zgarib bormoqda. Masalan, 2024-yilning birinchi yarmida ba'zi tumanlarda (Olmazor – 26 %, Shayxontohur – 24 %, Bektemir – 22 %) ijara haqlari sezilarli darajada pasaygan bo'lsa, iyun oyida esa ikkilamchi bozorda narxlarning o'sish sur'ati sustlashgan. Shu bilan birga, o'tgan yilga nisbatan ko'chmas mulk narxlarining o'rtacha 22 foizga oshgani kuzatilgan. Ayrim hududlarda esa bu o'sish Namanganda 34,9 %, Toshkent viloyatida 29,4 % va Toshkent shahrida 30,4 % ni tashkil etgan.

Yuqorida qayd etilgan holatlar ikkilamchi bozorda noturar joy obyektlari qiymatini aniq, shaffof va zamonaviy yondashuvlar asosida baholash zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Aynan shu jihatlar maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi hamda mavjud huquqiy mexanizmlarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulkini baholash masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, noturar joy obyektlarini baholashda qiyosiy (solishtirma) yondashuv keng qo'llaniladigan metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu usul bo'yicha dastlabki ilmiy asoslar AQSh va Yevropa baholash amaliyotida shakllangan bo'lib, Dj. Friedman, Dj. Trump, V. Bratton, R. Cotter, G. Harrison kabi olimlarning tadqiqotlarida chuqur o'rganilgan. Ularning ishlarida ko'chmas mulk qiymatini aniqlashda bozor baholarini tahlil qilishning samarali yondashuvlari keltirilgan. Masalan, Dj. Friedman va Dj. Trump o'z tadqiqotlarida qiyosiy metodning asosan bozorni tahlil qilish va turli obyektlar o'rtasidagi narx farqlarini aniqlashda qo'llanilishini asoslab bergan.

MDH davlatlarida esa A. N. Asauli, A. G. Gryaznova, I. T. Balabanov, S. N. Maksimov kabi mutaxassislar tomonidan qiyosiy tahlil uslubini amaliyotga joriy etish va uning aniqligini oshirish masalalari ilmiy jihatdan yoritilgan. Ularning ilmiy izlanishlarida ko'chmas mulk bahosini aniqlashda normativ-huquqiy jihatlarning, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning ahamiyati, shuningdek baholash jarayonlarining shaffofligini ta'minlash muhim ekani ta'kidlanadi. Jumladan, A. N. Asauli va S. N. Maksimov o'z tadqiqotlarida baholash usullari va metodlarining zamonaviy talablar asosida takomillashuvi bo'yicha tahlillar olib borganlar.

O'zbekistonlik olimlardan M. A. Ikramov, M. Miraxmedov, Sh. A. Isamuxamedova, D. Ya. Butunov va T. A. Xasanov kabi mutaxassislar tomonidan ko'chmas mulk obyektlarini baholashga oid masalalar, xususan, qiyosiy yondashuvni mahalliy bozor sharoitlariga moslashtirish bo'yicha izlanishlar olib borilgan. M. A. Ikramovning tadqiqotlarida qiyosiy metodning o'ziga xos jihatlari va uning iqtisodiy samaradorligi alohida e'tirof etilgan. M. Miraxmedov esa o'z ilmiy ishlarida qiyosiy tahlilning mahalliy sharoitlarga moslashuvchanligini, shuningdek uning narx siyosatiga ta'siri va amaliy qo'llanilishi bilan bog'liq metodologik yondashuvlarni ishlab chiqqan.

Shunga qaramay, aynan ikkilamchi bozorda noturar joy obyektlarini baholashda qiyosiy yondashuvni qo'llashga doir zamonaviy metodlar, baholashga ta'sir qiluvchi omillar, narx shakllanishiga ta'sir etuvchi individual xususiyatlarni hisobga olish mexanizmlari va ularni mahalliy bozor sharoitlariga moslashtirish masalalari hali yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu yo'nalishdagi bo'shliqlar ko'chmas mulk baholash sohasida yuzaga kelayotgan yangi muammolarni hal qilishga qaratilgan izlanishlar uchun keng ilmiy va amaliy imkoniyatlar yaratadi. O'zbekistondagi ikkilamchi bozor sharoitlarini chuqur tahlil qilish va baholash usullarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zarurati mazkur izlanishlarning dolzarbligini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda noturar joy ko'chmas mulk obyektlarini baholashda qo'llaniladigan qiyosiy (solishtirma) yondashuvning mohiyati, afzalliklari va amaliy qo'llanilishi o'rganildi. Tadqiqotda ilmiy-nazariy tahlil, statistik tahlil, sifatli va miqdoriy usullar, shuningdek amaliy tajriba asosida baholash usullari tahlil qilindi. Statistik tahlil yordamida ikkilamchi bozor narxlari va ularning o'zgarishlari o'rganildi, sifatli tahlil orqali esa baholashda qo'llaniladigan metodlarning samaradorligi va ularning amaliyotga mosligi baholandi. Tadqiqotning metodologik asoslari qiyosiy tahlil metodini qo'llashda mahalliy sharoitlar va ijtimoiy omillarning ahamiyatini tushunishga xizmat qiladi.

3 <https://www.lex.uz/docs/-3760277>



TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiy islohotlar va mulkchilik tizimining o'zgarishi mamlakatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mulkchilik shakllarining rivojlanishi jamiyatda mulkdan foydalanish va uni boshqarishning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Ko'chmas mulk, ayniqsa ikkilamchi bozorda, iqtisodiy faoliyatning muhim sohasi sifatida yuksaldi.

Mulkchilikning huquqiy mexanizmlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Ushbu qonunlar mulk huquqini himoya qilish, uning shaffofligini ta'minlash va davlatning rolini belgilashda muhim o'rin tutadi. Noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashda qonunlar va me'yoriy hujjatlar (masalan, "Baholash faoliyati to'g'risida"gi Qonun va Milliy baholash standartlari – MBS) alohida ahamiyat kasb etadi. Bu huquqiy asoslar baholovchining roli va xolislikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholash murakkabligi va ahamiyati sababli, qiyosiy (solishtirma) yondashuv eng keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Ushbu yondashuvning asosiy tamoyili – qiymatni bozor taklif qilayotgan eng maqbul sharoitlardan kelib chiqib aniqlashdir. Bu metodni qo'llash jarayonida baholovchilar obyektlarning o'ziga xos xususiyatlari va mavjud bozor sharoitlarini inobatga olishlari zarur.

Ko'p hollarda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini aniqlashda solishtirma yondashuvning qo'llanilishi bozorning o'zgaruvchan sharoitlariga va ko'chmas mulkning individual xususiyatlariga qarab farqlanadi. Jumladan, qiymatga joylashuv, qurilish materiali, arxitektura yechimlari, transport infratuzilmasi va boshqa ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida ko'chmas mulkni baholash bo'yicha Milliy baholash standartlari mavjud bo'lib, ularga rioya etish baholash jarayonining shaffofligi va aniqligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Masalan, 10-sonli Milliy baholash standarti – "Ko'chmas mulkni qiymatini baholash" standarti barcha asosiy baholash yondashuvlarini (solishtirma, xarajatlar, daromad) qo'llashda metodologik asoslarni belgilab beradi (1-rasm).



1-rasm. 2021–2024-yillar davomida oldi-sotdi shartnomalari soni o'zgarishi.

Mazkur grafikda 2021–2024-yillarning sentabr oyigacha bo'lgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha hamda poytaxt Toshkent shahrida rasmiylashtirilgan ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomalari sonining o'zgarishini aks ettiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2021-yilda respublika bo'yicha shartnomalar soni 19,3 foizga oshgan. Bu holat pandemiyadan keyingi tiklanish davri bilan bog'liq bo'lib, aholining ko'chmas mulk bo'yicha faolligi ortganini, iqtisodiy barqarorlik hamda hukumat tomonidan ko'rilgan moliyaviy rag'batlantirish choralarning samaradorligini ifodalaydi.

2022-yilda esa nisbatan barqaror o'sish (+1,4 %) kuzatilgan bo'lib, bu davrda bozordagi talab va taklif muvozanat holatiga yaqinlashgani ko'zga tashlanadi. Biroq 2023-yildan boshlab o'zgarishlar salbiy tomonga burilgan. Bu davrda o'sish sur'ati pasaygan va 2024-yilning sentabrigacha bo'lgan davrda umumiy pasayish –9 % ni tashkil qilgan. Ushbu pasayish iqtisodiy omillar, xususan aholining real daromadlarining qisqarishi, ipoteka kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining oshishi, qurilish materiallari narxining o'sishi hamda soliq yengilliklarining kamayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.



Toshkent shahri misolida esa ko'rsatkichlar nisbatan barqaror bo'lib, shartnomalar sonida sezilarli tebranishlar kuzatilmagan. Bu holat poytaxtdagi ko'chmas mulk bozorida talab va taklif o'rtasidagi muvozanat saqlanayotganini, aholining barqaror to'lov qobiliyati va sarmoyaviy qiziqish darajasining yuqoriligini ko'rsatadi.

Ilmiy nuqtayi nazardan olib qargalganda, ko'chmas mulk bozoridagi bunday dinamik o'zgarishlar bir qator makroiqtisodiy omillar bilan uzviy bog'liqdir. Jumladan, pul-kredit siyosati, aholining kreditga bo'lgan kirish imkoniyati, soliq yukining o'zgarishi, qurilish sohasidagi davlat siyosati hamda demografik o'sish kabi omillar ushbu bozorning holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2024-yilning sentabr oyida respublika bo'yicha ikkilamchi bozor uy-joy narxlari deyarli o'zgarmagan, ya'ni atigi 0,1 foizga o'sish kuzatilgan. Biroq yil davomida ikkilamchi bozorda 1 kvadrat metr uchun o'rtacha uy-joy narxi 6,7 foizga oshgan. Hududlar bo'yicha esa narxlarning eng yuqori o'sishi Xorazm viloyatida (19,5 %), Buxoro viloyatida (12,5 %) va Samarqand viloyatida (10 %) kuzatilgan (1-jadval).

1-jadval. Ikkilamchi uy-joy bozorida narxlar o'zgarishi, sentabr 2024.

Hududlar	O'rtacha narx (1 kv.m uchun, \$)	O'sish (oylik)	O'sish (yillik)
Toshkent sh.	1,117	-1.0%	1.8%
Samarqand	764	1.9%	9.8%
Toshkent viloyati	640	-0.2%	7.4%
Navoiy	619	-2.2%	-2.9%
Buxoro	545	1.3%	12.5%
Andijon	536	-4.7%	1.1%
Namangan	493	-1.4%	2.7%
Xorazm	436	3.2%	19.5%
Farg'ona	429	-2.3%	8.8%
Surxondaryo	427	1.1%	8.4%
Qashqadaryo	422	-1.5%	8.2%
Jizzax	407	4.7%	7.9%
Sirdaryo	405	2.4%	6.0%
Qoraqalpog'iston R.	327	0.3%	2.4%
Respublika bo'yicha	–	0.1%	6.7%

Toshkent shahrida ikkilamchi uy-joy bozorida narxlar 1 foizga pasaygan. Poytaxtda narxlarning eng katta pasayishi Mirzo Ulug'bek (–2,5 %) va Yunusobod (–2,4 %) tumanlarida kuzatilgan. Biroq Toshkentning yana ikkita tumanida narxlar oshgan – Yakkasaroyda 1,1 %, Shayxontohurda esa 0,3 % ga o'sish qayd etilgan.

Toshkent shahridagi ikkilamchi uy-joylar bozorida narxlarning o'rtacha o'sishi 1,8 % ni tashkil qilgan. Bu o'zgarish, ayrim tumanlarda pasayish bo'lganiga qaramay, poytaxtda umumiy narx o'sishining ijobiy tendensiyasini ifodalaydi. Ushbu holat ko'chmas mulkni baholash amaliyotining dolzarbligini yanada oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida baholovchi tashkilotlar va ularning litsenziyalash tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bu tizim baholovchilarga ishonchli va sifatli xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ko'chmas mulkni baholashda asosiy metodlar qiyosiy (solishtirma), daromad va xarajatlar yondashuvlariga bo'linadi. O'zbekiston sharoitida ayniqsa qiyosiy yondashuv keng qo'llaniladi. Ushbu metodda bozor sharoitlari va o'xshash obyektlarning narxlari asosida mulk qiymati aniqlanadi.

Xarajatlar metodida ko'chmas mulkni tiklash yoki rekonstruksiya qilish uchun zarur bo'lgan xarajatlar hisobga olinadi. Daromad metodi esa ushbu obyekt orqali olinishi mumkin bo'lgan potentsial daromadni hisoblashga asoslanadi. Bunday yondashuvlar bozor sharoitlariga mos ravishda mulkning qiymatini aniq belgilashda yordam beradi.

Biroq O'zbekiston ko'chmas mulk bozorini yanada rivojlantirish va noturar joy obyektlarini baholashni samarali amalga oshirish uchun sohaga bir qator yangiliklarni joriy etish zarur. Jumladan, bozor sharoitlaridagi tezkor o'zgarishlarga moslashuvchan baholash metodologiyasini ishlab chiqish, baholovchilarning malakasini oshirish hamda zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish muhimdir. Bundan tashqari, ko'chmas mulkni baholashda ekologik omillarni hisobga olish zarurati ortib bormoqda. Yashil qurilish va ekologik standartlarga mos obyektlar ko'chmas mulk bozorining muhim segmenti sifatida qaralishi lozim.

Ko'chmas mulk bozorining ikkilamchi segmenti, ayniqsa noturar joylarni baholash mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Baholash usullari va metodlarining huquqiy hamda iqtisodiy asoslarini chuqur



o'rganish, bozor sharoitlariga mos keladigan baholash tizimini shakllantirish zarur. Bu borada milliy baholash standartlari, huquqiy normativlar va zamonaviy metodologiyalar asosida amalga oshirilgan baholash jarayonlari shaffoflik, adolat va ishonchlilikni ta'minlaydi.

Yangilangan 10-sonli Milliy baholash standarti – “Ko'chmas mulk qiymatini baholash” – avvalgi versiyadan sezilarli farq qiladi. Ilgari ushbu standart 8-o'rinda bo'lgan bo'lsa, yangi tahrirda 9-o'ringa ko'tarilgan. Bu o'zgarish, ayniqsa development – ya'ni yangi qurilgan, rekonstruksiya qilingan yoki loyihalashtirilgan obyektlarning qiymatini baholash metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan. Standartga yangi tushunchalar va ta'riflarning kiritilishi, yangi qurilish obyektlarini bozor sharoitlariga mos ravishda baholash imkonini beradi.

Soliq maqsadida baholashda esa mavjud muammolardan biri – omborxonalar kabi noturar joylar uchun belgilangan qiymatlarning soliq bazasidagi narxlardan ancha past bo'lishidir. Bu holat Soliq qo'mitasi bilan kelishmovchiliklarga sabab bo'lmoqda. Mazkur vaziyat soliq tizimi va baholash jarayonlari o'rtasida o'zaro moslikni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Bunday holatlarda quyidagi masalalar dolzarb bo'lib qoladi:

- Baholovchining xolisligi va ishlatilgan metodlarning aniqligi;
- Bozor sharoitlari bilan soliq maqsadidagi baholashlar o'rtasidagi tafovutlar;
- Baholovchilar va soliq organlari o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy kelishmovchiliklar.

Soliq qo'mitasi tomonidan ko'chmas mulk obyektlarining qiymatini inshootlarning funksional vazifasiga qarab belgilash muhim hisoblanadi. Bu yondashuv soliq bazasini adolatli shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, “Binolar va inshootlarning o'rindoshlik qiymatining yig'ilgan ko'rsatkichlari” bo'yicha yangilangan tahrirni ishlab chiqish zarur. Bu ko'rsatkichlar nafaqat soliq to'lovchilar uchun haqiqatga yaqin qiymatlarni ta'minlaydi, balki baholash metodlarini ham zamonaviylashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida ko'chmas mulkni, xususan, noturar joy ob'ektlarini baholash tizimi so'nggi yillarda sezilarli darajada isloh qilinmoqda. Milliy baholash standartlarining yangilanishi, jumladan, 10-son MBS “Ko'chmas mulk qiymatini baholash” standartining qayta ishlab chiqilishi amaldagi tartiblarning takomillashtirishini ko'rsatadi.

Shuningdek, baholash amaliyotiga development (rivojlanayotgan) ko'chmas mulk tushunchalarining kiritilishi, bu mulk turini baholashdagi aniqlik va puxtalikni oshiradi. Standartlarning raqamli joylashuvi o'zgarishi (masalan, “Biznes va biznes huquqlarini baholash” 7-o'rindan 9-o'ringa ko'tarilishi) esa tizimlashtirish va mazmuni yo'naltirishdagi strategik qarorlarni aks ettiradi.

Biroq, soliq maqsadida baholashda mavjud muammolar, xususan, noturar joy ob'ektlari, ayniqsa, omborxonalar narxlarining baholovchilar tomonidan belgilangan qiymatlar bilan Soliq qo'mitasi bazasidagi narxlar o'rtasida katta tafovutlar mavjudligi – bu tizimda muvofiqlashtirishga ehtiyoj borligini ko'rsatmoqda. Bu holat, o'z navbatida, davlat organlari bilan baholovchilar o'rtasida kelishmovchiliklarga sabab bo'lmoqda.

Takliflar

Baholash va soliq bazasi orasidagi tafovutni kamaytirish uchun yagona metodik yondashuv ishlab chiqilsin: Baholash amaliyotida foydalanilayotgan metodik ko'rsatkichlar Soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan ko'rsatkichlar bilan muvofiqlashtirilishi zarur.

“Binolar va inshootlarni o'rindoshlik qiymatining yig'ilgan ko'rsatkichlari” bo'yicha yangi va yangilangan me'yoriy hujjat ishlab chiqilsin: Mazkur ko'rsatkichlar zamonaviy narxlar, resurslar va funksional foydalanish xususiyatlarini inobatga olgan holda yangilanishi lozim. Har yilgi indeksatsiya asosida avtomatik yangilanadigan tizim joriy etilishi mumkin.

Development (rivojlanayotgan) ko'chmas mulkni baholash bo'yicha alohida yo'riqnoma ishlab chiqilsin: Yangi qurilayotgan yoki foydalanishga topshirilmagan ob'ektlar bo'yicha maxsus baholash metodikasi amaliyotga joriy etilishi lozim.

Soliq qo'mitasi va baholovchi tashkilotlar o'rtasida muntazam axborot almashinuvi va o'zaro muvofiqlashtirish mexanizmlari yaratilishi kerak: Baholovchilar va soliq mutaxassislari o'rtasida seminar va treninglar o'tkazish, o'zaro tajriba almashish tizimi joriy etilishi foydali bo'ladi.

Baholovchilar tomonidan foydalaniladigan axborotlar ochiq elektron platformalarda umumiyashtirilgan holda yuritilsin: Bu ochiqlik va shaffoflikni ta'minlaydi, shuningdek, turli baholash qiymatlari bo'yicha solishtirma tahlillarni osonlashtiradi.

Baholash va soliq qiymati o'rtasidagi tafovut yuzaga kelgan hollarda nizolarni tartibga solish bo'yicha tartib-qoidalar ishlab chiqilsin: Baholovchi tashkilotlar va soliq organlari ishtirokida ekspert komissiyalari tashkil etilishi lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ko'chmas mulkni baholash: o'quv qo'llanma / K.B. G'aniyev, G.I. G'aniyeva, F.K. G'aniyeva. – Toshkent
2. Ko'chmas mulk qiymatini baholash / Darslik. Xomitov K.Z. – Toshkent: —IQTISOD-MOLIYAII nashriyoti, 2019
3. «Ko'chmas mulkni baholash» darsligi Moskva «Moliya va statistika», 2005 yil;
4. Fridman D., Ordvey N. "Daromad keltiruvchi ko'chmas mulkni tahlil qilish va baholash";
5. Gryaznova tomonidan tahrirlangan «Ko'chmas mulkni baholash» darsligi, 2005;
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/14/eal-estate/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
